

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH*Nurullayeva Ozoda Nizom qizi**Buxoro Davlat Universiteti Pedagogika instituti**"Aniq va tabiiy fanlar" kafedrası**Geografiya va iqtisodiy bilim**asoslari yo'nalishi**3 bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlanishi kambag'allikni qisqartirishning muhim omili ekanligi bo'yicha ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik faoliyati, ayniqsa, mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, o'zini o'zi band qilish orqali o'z tadbirkorligiga ega bo'lish borasida tegishli takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlikni faoliyati, o'zini o'zi band qilish, kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy media marketing, ijtimoiy tarmoqlarda tovarlarni siljitish.

Аннотация: В данной статье представлены научные взгляды на то, что дальнейшее развитие предпринимательства является важным фактором сокращения бедности. В целях сокращения бедности разработаны соответствующие предложения по развитию предпринимательства особенно в микрорайонах и самозанятости.

Ключевые слова: Предпринимательство, самозанятость, борьба с бедностью, маркетинг в социальных сетях, продвижение товаров в социальных сетях.

Abstract: This article presents scientific views on the fact that the further development of entrepreneurship is an important factor in reducing poverty. In order to reduce poverty, the relevant proposals have been developed regarding the development of entrepreneurship, especially in the neighborhoods, and self-employment.

Keywords: entrepreneurship, self-employment, poverty alleviation, social media marketing, promoting goods on social networks.

Kirish: Har bir mamlakatda bo'lgani kabi, mamlakatimizda ham insonlar yashash darajasi va hayot farovonligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. 2020-yil boshida Prezidentimiz kambag'allikni qisqartirish masalasini davlat siyosatining asosiy vazifasi sifatida belgilab berdi. Umuman, O'zbekistonda kambag'al qatlam mavjudligining tan olinishi sohaga doir siyosatning dastlabki burilish nuqsati bo'ldi. 2020-yilda mamlakatda kambag'allar soni aholining 12-15% ini tashkil etishi ochiq oshkora aytiladi. Bugungi kunda

kambag'allikni qisqartirish, insonlar yashash darajasini yanada yaxshilash barqaror rivojlanish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar, strategiyalar, konsepsiyalar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, 2022-2026 yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq 2026-yil oxiriga qadar mamlakatda kambag'allik darajasini ikki baravarga kamaytirish rejalashtirilmoqda. 2023-yil 18-may Toshkentda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ikkinchi xalqaro forum bo'lib o'tdi. Unda so'zga chiqqan bosh vazir o'rinbosari Jamshid Qo'chqorov O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish borasida olib borilayotgan ishlar va kelgusi rejalar haqida gapirdi. Bosh vazir o'rinbosarining aytishicha, kambag'alikka qarshi kurashishning eng muhim yo'nalishlaridan biri bu- ta'lim va sogliqni saqlashdir. "Jahon banki bilan hamkorlikdagi dasturimizning eng katta yo'nalishi inson kapitalini rivojlantirish hisoblanadi", - dedi u. Jamshid Qo'chqorov O'zbekiston hukumatining kambag'alikka qarshi kurashishdagi asosiy yo'nalishlarini aytib o'tdi. Birinchisi, qishloq xo'jaligida unumdorlikni oshirish qishloq hududlarida tadbirkorlikni rivojlantirish. Ikkinchi yo'nalish qishloq hududlarida sanoatni rivojlanish hisoblanadi.

Uchinchi, infrastrukturani rivojlantirish- bir joydan ikkinchi joyga tovarlarni yetkazib berishni tezlashtirish, odamlarning mobilligini oshirish uchun harakat qilish. To'rtinchi yo'nalish urbanizatsiya jarayonidir. Ma'lumki O'zbekistonning 50 % aholisi qishloq hududlarda istiqomat qiladi. 50 % lik urbanizatsiya darajasi bilan kambag'allikni qisqartirish imkonsiz. Shu sababli urbanizatsiya eng muhim yo'nalishlardan biri. Insonning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan daromad va resurslar yetishmasligi, jamiyatda to'laqonli ishtirok etish uchun to'siqlarning mavjudligi ochlik va to'yib ovqatlanmaslik, sog'liqni saqlash, ta'lim yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalanishda cheklolarning mavjudligi, oilasini boqishi va kiyintirishi biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta'minlash imkoniyatlar yetishmasligi hamda kredit olish imkoniyatining cheklanganligi kambag'allik darajasining oshishiga sabab bo'lyapti. Moddiy yordamga muhtoj aholi qatlamini rivojlantirish uchun ularning dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun kerakli mehnat qurollari haridiga subsidiya ajratilishi, ishsizlar bandligini ta'minlash, turli grand, nafaqa va boshqa to'lovlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish kerak. Bundan tashqari ehtiyojmand oilalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlarni yanada kengaytirish kerak.

Mamlakatda kambağallarning sonining ortishi iqtisodiy resurslar manbasidan samarali foylanilmayotganligi, tadbirkorlik muhitini yaxshi yo'lga qo'yilmaganligini, hukumat qarorlarini ijrosi ta'minlanmayotganligini va korrupsiya avj olganligini anglatadi, kambag'allik avvalo savodsizlikni, ilmsizlikni, jinoyatchilikni keltirib chiqaradi. Agarda kambag'allikni oz vaqtida oldi olinmasa, jumladan, kambag'al kishilarni ish bilan ta'minlash ularni bozor iqtisodiyotining salbiy ta'siridan himoya

qilinmasa mamlakatda yuritilayotgan siyosatdan noroziligini bildiradi. Shu sababli ham kambag'allol muammosini hal etish doimo dunyo hamjamiyati e'tiborida turadi. Kambag'allik nafaqat iqtisodiy balki chuqur ijtimoiy va madaniy muammodir. Jahon amaliyotida kambag'allik chegarasini aniqlashning asosiy 4 ta: mutlaq, nisbiy, moddiy deprivatsiya va ko'p o'lchamli usullar mavjud. Mazkur usullar mamlakat ijtimoiy siyosatining ustuvorligi, iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi hamda ichki imkoniyatlardan kelib chiqib belgilanadi. Qator mamlakatlarda milliy kambag'allik chegaradi sifatida mutlaq yoki nisbiy usuldan foydalanadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishning 2030 yilgacha strategiyasi va konsepsiyasi tayyorlanmoqda. Unda kambag'allik tushunchasi, uni aniqlash mezonlari va baholash usullari, ijtimoiy ta'minotning minimal standartlari, ta'lim, tibbiyot, uy joy ta'minoti va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajriba xususan, Xitoy tajribasida foydalanish ko'zda tutilgan.

O'zbekistonda sòngi yillarda kambag'allikni kamaytirish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish borasida katta ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston kambag'allikni qisqartirish bo'yicha Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi bilan birgalikda dastur ishlab chiqishni rejalashtirmoqda. Uni amalga oshirish uchun 700 million dollar mablag' yo'naltirilar ekan. Kambag'allikni qisqartirish aholining kelgusida ushbu toifaga tushib qolishlarining oldini olish maqsadida kambag'allik turlari va uni aniqlash metodologiyasini tadbiq etish talab etiladi. Xalqaro tajribada kambag'allik muammosini o'rganishdan kelib chiqib, uning mutloq (absolyut) nisbiy va sub'ektiv turlarga ajratish mumkin. Mutloq (absolyut) kambag'allik – Aholining jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va tirikchilik minimumini taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi (daromadiga nisbatan kambag'al). Nisbiy kambag'allik – Aholining jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va kambag'allikning nisbiy chizig'i asosida aniqlanadi. Sub'ektiv kambag'allik – Respondentlarning o'z-o'zini baholashi orqali aniqlanadi. Bundan tashqari ijtimoiy va iqtisodiy kambag'allik turlari ham mavjud. Ijtimoiy kambag'allik – bu ishga layoqatsizlik, nogironligi bo'lgan, kasalmandlardan iborat bo'lib, ularning ruhiy va jismoniy zaifligi sababli daromad olmasligi holatini baholash orqali aniqlanadi.

Iqtisodiy kambag'allik – to'laqonli ish samaradorligiga ega bo'lib, o'zining ishlab chiqargan tovar va xizmati evaziga olgan daromadi farovonlikni ta'minlay olmasligi evaziga baholanadi. Xalqaro tajribada kambag'allik darajasini aniqlash - aholining daromadi va mulki, ta'lim olish imkoniyati, ijtimoiy ehtiyojlarini qondira olish imkoniyatlari kabi mezonlarga asosan baholanadi. Mamlakatda kambag'allik darajasi mamlakatning iqtisodiy potensialini ro'yobga chiqara olish ko'rsatkichiga ham bog'liq. Kambag'allik bu nisbiy tushuncha bo'lib, aholining yashash tarzi iste'mol madaniyati, narx-navo darajasi bilan farqlanadi. Bunda narx ekvivalenti va

tovar qiymati ham muhim o‘rin tutadi, ya‘ni O‘zbekistonda 100 AQSH dollariga teng mahsulot va xizmatlar Evropa mamlakatlarida shu turdagi tovar va xizmatlar narxidan farq qiladi. “Kambag‘allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir”, degan edi Prezident. Keyingi besh yil davomida mamlakatimizda keng miqyosdagi demokratik o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. “Yangi O‘zbekiston” degan tushuncha real voqelikka aylanmoqda. O‘zbekistonda chinakam adolat o‘rnatish, xalq farovonligini ta‘minlash, ehtiyojmandlar og‘irini yengillashtirish, taraqqiyot kushandasi – korrupsiyani tag tomiri bilan mahv etish yo‘lida xalqchil siyosat olib borilmoqda. Birinchidan, kambag‘allikni ikki barobar qisqartirish maqsad qilib olindi. Kambag‘allikni qisqartirish maqsadida ijtimoiy yordamning yangi va samarali mexanizmlari joriy etildi. Bu haqda gap ketganda, “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ni, ularga kiritilgan fuqarolar bilan tizimli ishlash yo‘lga qo‘yilganini alohida ta‘kidlash lozim. Eng muhimi, odamlarda erkin mehnat qilish, ishbilarmonlik va tadbirkorlik hisobidan kambag‘allikdan chiqish tajribasi va ko‘nikmasi shakllanmoqda. Bularning barchasi yurtimizda Uchinchi Renessans – milliy taraqqiyotimizning yangi davri poydevorini yaratishga xizmat qiladi. O‘tkir ijtimoiy muammo bo‘lib kelayotgan aholini arzon uy-joylar bilan ta‘minlash bo‘yicha davlat dasturi doirasida so‘nggi besh yilda 140 mingdan ziyod yangi kvartira va yakka tartibdagi uy-joylar barpo etildi. Bu – oldingi besh yilga nisbatan 10 barobar ko‘p uy-joy qurildi, deganidir.

Hozirgi kunda, Respublikada kambag‘allikni qisqartirish borasida qisqa va uzoq muddatlarga mo‘ljallangan strategik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Qisqa muddatli chora-tadbirlar asosan, aholini kambag‘allik holatidan qashshoqlik holatiga o‘tish riskini to‘liq bartaraf etishga qaratilgan. Bunda jahon tajribasida keng qo‘llaniladigan kambag‘al oilalarning doimiy daromad manbaini yaratish, inson kapitali sifatini oshirish hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash kabi 3 vositadan foydalanilmoqda. Birinchi vosita – kambag‘al aholining doimiy daromad manbai yaratildi. Ma‘lum qilinishicha ushbu vosita orqali kambag‘allikni qisqartirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan: “Oilaviy tadbirkorlik” dasturlarini qamrov darajasi oshirilmoqda;

- aholi tomorqalarini rivojlantirishga, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va boshqa sohalarda kooperativlarga jalb qilinadigan shaxslarning a‘zolik badaliga, mehnat organlari yo‘llanmasi bilan ishga oladigan ish beruvchilarga subsidiyalar ajratilmoqda;

- Namangan viloyatida ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz, kam ta'minlangan oilalar bandligini ta'minlash orqali doimiy daromad manbalariga ega bo'lishlariga ko'maklashish maqsadida "Bir joyda – ming oila issiqxonasi" loyihasi amalga oshirilmoqda;

Ushbu loyiha orqali Namangan tumanida 38 ming xonadonning 1,5 ming gektar ekin maydonlarida issiqxonalar tashkil etish uchun 50 mlrd. so'm mablag' yo'naltirilgan. Loyiha doirasida "Bir mahalla - bir mahsulot" tamoyili asosida bir joyda eksportbop sifatli mahsulot yetishtirilib, kambag'al oilalar doimiy daromad manbalariga ega bo'lmoqda. Hozirda mazkur loyiha doirasida Chortoq tumanidagi 800 ta kambag'al oilalar a'zolarining bandligi ta'minlangan. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilanishi bilan birga bu boradagi ilmiy ishlar ham jadallashdi. Iqtisodiyot sohasining ilmiy mutaxassis va olimlari tomonidan bir qator ilmiy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, N.Ernazarova esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, aholi bandligi va daromadini oshirishda eng asosiysi tadbirkorlikni rivojlantirish orqali mamlakatda kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik sohalari, jumladan, oilaviy biznes sohasi faoliyati muhim ahamiyat kasb etib, iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda yetakchi o'rinni egallashi haqidagi fikrni ilgari surgan [5]. So'ngi yillarda iqtisodchi ilmiy izlanuvchilar, tegishli vazirlik mutaxassislari tomonidan davlatimizda kambag'allikni qisqartirish masalasida keng ko'lamli izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, i.f.d. M.Kalonov o'zining ilmiy taxliliiy maqolasida "kambag'allik" tushunchasini shu kungacha "yopiq mavzu" bo'lib kelganligini va u "kam ta'minlanganlik", "ehtiyojmandlik", degan tushunchalardan farq qiladi, deya ta'kidlagan [6]. O.X.Maxmudov tomonidan oilalarda kambag'allikni qisqartirish omillari, xususan, xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish mumkinligi tadqiq qilingan [4].

Tadbirkorlikni yanada rivojlantirish masalalari bo'yicha yetarli darajada mutaxassislar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi Sh.Quvondiqovning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, xususiy tadbirkorlikni rivojlanishida marketing muammolari [7], sotuv kanallarini tashkil etish[6], sotuvdan keyingi xizmatlarni rivojlantirish[8], ulgurji savdo xizmatida mijozlarga xizmat ko'rsatish masalalari [9] D.H.Xolmamatov tadqiqotlarida tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarda ham tadbirkorlik faoliyatida yangi ish o'rinlari ochilishi, aholi bandligini ta'minlashi, aholi daromadlarini oshishi kabi masalalar tadqiq qilingan. Tadqiqot metodologiyasi. Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik faoliyatining o'rni va ahamiyatli yo'llariga xos bo'lgan asosiy usuliyatlarini asoslab berish, tadbirkorlikni yanada rivojlantirish kambag'allikni qisqartirishning bosh omili ekanligi izohlanadi. Tadqiqot davomida monografik

kuzatuv, mantiqiy fikrlash, tizimli yondashuv, analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat iyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" PF-29-son farmoni. 03.12.2021 yil. <https://lex.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda kambag'allik bilan kurashish ko'lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6277-son farmoni. 11.08.2021. <https://lex.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-31-son qarori. 03.12.2021 yil. <https://lex.uz>.
4. O.X.Махмудов. Oilalarda камбағалликни қисқартириш омиллари. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr dekabr, 2021 yil, 267-276 betlar.
5. Эрназарова Н.Н. Oilaviy тadbirkorлик фаолиятини ривожлантириш орқали камбағалликни қисқартириш/"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil. 253-258 betlar.
6. Калонов М. "Камбағалликни қисқартириш: имконият ва ҳаракатлар қандай натижа беради?" «Халқ сўзи» газетасининг 2021 йил 11 февраль 30- сони.
7. Kholmammatov Diyor Haqberdievich, Boyjigitov Sanjarbek Komiljon ugli. Marketing Problems In The Development Of Export Activities Of Small Business Entities. International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS), 31-39 pp, 2020
8. Kholmammatov Diyor Haqberdievich. Develop Criteria for Selecting Distribution Channels in Small Business. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 134-145 pp, 2022
9. Kholmammatov Diyor Haqberdievich. Promote Upgrade After-Sales Service Strategic Skills. Indonesian Journal of Law and Economics Review, 2019 10. Kholmammatov Diyor Haqberdievich. Development of Customer Service Delivery System in Wholesale Trade. Indonesian Journal of Law and Economics